

## MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK SIMFONIK MUSIQASINING TARAQQIYOTI VA MILLIYLIK TAMOYILLARI

*Kadirova Dilshodaxon Ibrogimovna*

*V.Uspenskiy nomidagi Respublika*

*Ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi*

*“Musiqi adabiyoti” bo'limi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqilligi yillarida milliy kompozitorlik maktabining shakllanishi va rivojlanishi, simfonik musiqa, janrida yaratilgan yirik asarlar hamda ularning badiiy va estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va yevropa musiqiy an'analari uyg'unligi, zamonaviy orkestrning akustik imkoniyatlarini o'zlashtirish yo'lidagi izlanishlar, yosh kompozitorlarning jodiy izlanishlari hamda xalqaro miqyosda olib borilgan faoliyati yoritiladi. Maqolada mustaqillik davri o'zbek simfonik ijodiyotining o'ziga xosliklari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** simfonik musiqa, milliy kompozitorlik maktabi, orkestr, maqom, rapsodiya, xalqaro festival, “Serial”, “Aleatorika”, “Puantilizm”, “Sonorizm”, “Elektron musiqa”.

O'zbekiston mustaqilligi milliy madaniyat va san'atning yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, musiqiy san'atda milliy qadriyatlar va jahon musiqa madaniyati an'analari uyg'unlashib, yangicha yo'nalishlar shakllana boshladi. Shu jarayonda milliy kompozitorlik maktabi namoyondalari o'zbek simfonik musiqasini yuksaltirish, uni xalqaro maydonda tanitish va o'zining milliy ruhini asrab qolish borasida katta ijodiy faoliyat olib bordilar.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq simfonik asarlar milliy ohanglar, maqom ladlari va Yevropa simfonizmi uslublari o'zida mujassam etgan holda yaratilmoqda. Bu jarayon o'zbek musiqasining global madaniyatga qo'shilgan hissasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa XX asrd insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyoti yangidan-yangi falsafiy-estetik tamoyillar kashf eta boshladi. Musiqa san'atida realizmning turlanishi boshlandi. Romantik ideallar, abstrakt umumlashmalar, impressionizm, ekspressionizm kabi ijodiy oqimlar, ma'lum estetik tamoyil va yo'nalish bo'yicha turlanish jarayoni avj oldi. Bularidan tashqari: “Serial”, “Aleatorika”, “Puantilizm”, “Sonorizm”, “Elektron musiqa” kabi avangard atalmish oqimlar ham avj oldi. Natijada bu davrga kelib “Tonallik va notonallik” texnika egallandi. Ijodiy tafakkur maydonida qaysi uslubiy yo'lni tanlash yoki qaysi birisini qo'llash kompozitoming o'ziga havola bo'lib qoldi.[2]

Ma'lumki, yuqori saviyali, badiiy-simfoniya yaratish mushkul jarayondir. Chunki bu abstraktli musiqiy obraz bilan davr voqealari, xilma-xil, rang-barang murakkab hayotni, tabiatni aks ettirish ijodkordan chuqur nazariy-musiqiy bilimni, ijodiy mahoratni, falsafiy dunyoqarashni, milliy musiqiy an'analarni mukammal ravishda idroklash va talqin eta olishni talab etadi. Shuning uchun kompozitoming birgina kasbiy mahorati bilan chegaralanib qolmaydi. Uning asosiy mezonini yorqin, milliy ruh bilan sug'orilgan, yuqori saviyali, badiiy-estetik, ta'sirchan asar yaratishdadir.

O'zbekistonda ikkinchi jahon urushi yillari yuqorida ilk bor G.Mushel S.Vasilenko, A.Kozlovskiy, M.Ashrafiylar bir qator simfonik asarlari bilan musiqa ijodiyotida o'zlarini namoyon etdilar. Urushdan keyin, so'nggi yillardagi janr ijodiyoti xususida musiqashunos N.S.Yanov-Yanovskaya o'zining “O'zbek simfonik musiqasi” kitobida alohida tahlil qilib bergan.[3]

G'arb musiqa madaniyatida paydo bo'lib rivoj topgan bu janr, o'zbek kompozitorlari ijodiga XIX – arsning oxirlarida kirib keldi. Simfonik musiqa O'zbekistonda shallanish hamda rivojlanish jarayoni o'ziga xos uchta ijodiy jarayonlardan iboratdir:

1. *Birinchi bosqich* – bu simfonik janr, ijrochilik me'zonlarining O'zbekiston xududiga kirib kelishi hamda rus kompozitorlarining o'zbek milliy ohanglari asosida asarlarni yaratishi.
2. *Ikkinchi bosqich* – milliy kompozitorlik maktabi namoyondalari ijodida simfonik asarlarning yaratilishi.
3. *Uchinchi bosqich* – o'zbek – simfonist kompozitorlarining shakllanishi va yetuk simfonik asarlarini jaxon talabiga mos ravishda yaratilishi.

Bundan tashqari O'zbekiston milliy simfonik musiqa janrlari ilk davrlardan boshlab serko'lam va quyidagi ijodiy uslublarga asoslanib yaratildi:

1. Xalq kuyini o'zgartirmagan holda uni garmoniyalashtirish va cholg'ulashtirish.
2. Xalq kuyini qayta ishlash, ya'ni ayrim o'zgartirishlar tufayli mavzuni riqojlantirish.
3. Xalq kuyini iqtibos sifatida qo'llash va rivojlantirish.
4. Xalq musiqasining intonatsiya, usul, tebranish xususiyatlaridan mukammal foydalanish orqali asar yaratish.
5. Mustaqil ravishda, milliy ruxda, mualliflik-orginal mavzu asosida simfonik asarlar yaratish [1]

XX asrning 20-40- yillarida V.Uspenskiy, A. Kozlovskiy, G. Mushel, R. M. Glier kabi kompozitorlar o'zbek musiqasi tarixida yangi saxifa ochib berdilar. Keyinchalik M. Ashrafiy, M. Burxonov, T. Sodiqov, M. Liviev, S. Yudakov, S. Boboev kabi kompozitorlar xam asta-sekin o'zlarining irod namunalarini birin-ketin namoyish eta boshladilar.

50 -60 yillarda esa, ikrom Akbarov, Fattox Nazarov, Doni Zokirov, To'liqin Qurbonov, Enmark Salixov, Sovet Varelas, Sayfi Jalil, Feliks Yanov-Yanovskiy kabi kompozitorlar o'z asarlarini yarata boshladilar.

80-90 yillardan boshlab bo'lsa, keyingi yosh avlod kompozitorlari Mirsodiq Tojiev, Mirxalil Maxmudov, Ulug'bek Musaev, Rustam Abdullaev, Mustafo Bafoev, Anvar Ergashev, Xabibulla Raximov, Dilorom Omonullaeva kabilar o'zbek kompozitorlik maktabining gullab yashnashiga xizmat qilib kelmoqdalar.

50 -60 yillarda esa, ikrom Akbarov, Fattox Nazarov, Doni Zokirov, To'liqin Qurbonov, Enmark Salixov, Sovet Varelas, Sayfi Jalil, Feliks Yanov-Yanovskiy kabi kompozitorlar o'z asarlarini yarata boshladilar.

80-90 yillardan boshlab bo'lsa, keyingi yosh avlod kompozitorlari Mirsodiq Tojiev, Mirxalil Maxmudov, Ulug'bek Musaev, Rustam Abdullaev, Mustafo Bafoev, Anvar Ergashev, Xabibulla Raximov, Dilorom Omonullaeva kabilar o'zbek kompozitorlik maktabining gullab yashnashiga xizmat qilib kelmoqdalar.

Simfonik musiqa dastlabki yaratilish jarayonlarida ham tarixiy shaxslarni ifodalovchi maqzudagi asarlar paydo bo'la boshladi. Avvaligi kichik xajmli simfonik asarlardan boshlab keyinchalik yirik xajmli simfonik musiqalar yaratildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy kompozitorlik maktabimizning yirik namoyondalari tomonidan birin-ketin milliylik ruhida sug'orilgan hamda barcha yevropa an'analari asosida sug'orilgan simfonik asarlar yaratila boshlandi.

Kompozitorlar milliy va yevropa cholg'u asboblari tembrlarini uyg'unlashtirgan zamonaviy simfonik orkestrning yangi akustik imkoniyatlarini o'zlashtirish yo'llarini izlab topmoqdalar. Ijodiy erkinlik va yangilikka intilish zamonaviy kompozitorlarning o'ziga xosligidir.

Bu davrda turli janrlarda qiziqarli simfonik asarlar: N. G'iyosov maqom simfoniylari, M. Tojiev simfoniylari (15-“Gulag arxipelagi”, 16-“Ruxlar nidosi”, 17-“Somon yo'li”, 19-

“Qahramonlik”, simfoniylar) yaratildi. -T.Qurbonovning “Askia” rapsodiyasi, I.Akbarovning simfonik epitafi, M.Bafoev, X.Rahimov, A.Mansurovning simfonik she’rlari va simfoniylari. Yosh mualliflarimiz o‘z asarlarini xalqaro festival va tanlovlarda namoyish etmoqda. Respublikamizda bir necha yillar davomida “Ilhom XX” xalqaro zamonaviy musiqa va simfonik musiqa festivallari o‘tkazilib, ularda kompozitorlar D.Yanov-Yanovskiy, N.G‘iyosov, D.Varelas, P.Medyulyanova va boshqalarning asarlari ijro etildi.

Mustagillik davri o'zbek simfonik musiqasi taraqqiyoti milliy va jahon musiqiy merosining uyg'unlashuvi, ijodiy erkinlik, yangilikka intilish va xalqaro hamkorlikning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda yaratilgan simfonik asarlar nafaqat milliy musiqiy tafakkurni boyitdi, balki o'zbek musiqasining xalqaro miqyosda tanilishiga zamin yaratdi. Shu jihatdan, mustaqillik yillarida yaratilgan simfonik asarlar O'zbekistonning madaniy taraqqiyoti va musiqiy merosida alohida bosqichni tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Jabborov “O‘zbek musiqa tarixi” T.:2018 [1]
2. Jo'rayev M. O‘zbek musiqa madaniyati tarixi. - Toshkent: O'zbekiston, 2015.
3. Yanov-Yanovskaya N. S. “Istoriya uzbekskoy soveskoy muzyki” III tom. T., “G‘afur G‘ulom”, 1991.
4. Tojiyev M. Simfonik asarlar tahlili. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
5. Abdullaev.R “Opera dramaturgiyasi”. Toshkent., 2007.
6. Bafoev. M “Ruboiyyot va kompozitorlik ijodiyoti”. Toshkent., 2008.

#### **Internet saytlari va elektron maqolalar:**

1. Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 ISSN 2181-063X  
Quvvatov Ilyos Isroilovich “Maqom va o‘zbek simfonizmi”
2. <https://lex.uz> rasmiy sayti
3. <https://www.commus.uz> “O‘zbekiston bastakorlari va kompozitorlari uyushmasi”.
4. [https://www.kultura.uz/view\\_2\\_r\\_11156.html](https://www.kultura.uz/view_2_r_11156.html)